

Yo'lovchi va kutib oluvchilar diqqatiga

2022 20 Dekabr

2022-yil 20-dekabr kuni Andijon, Farg'ona va Namangan xalqaro aeroportlarining o'zgaruvchan ob-havo sharoiti tufayli (tuman, ko'rish darajasining yomonligi) Uzbekistan Airways bir nechta reyslari majburiy kechiktiriladi:

HY-091/HY-092 Toshkent – Andijon –Toshkent qatnovi, HY-049/HY-050 Andijon – Samarqand – Andijon va HY-074/HY-073 Buxoro – Namangan – Buxoro qatnovlari majburiy ravishda bekor qilinadi.

Yo'lovchilar bekor bo'lgan qatnov aviachiptalarining to'liq qiymatini chipta sotib olingan joyda qaytarib olishlari yoki boshqa sanaga bepul qayta bronlash huquqiga egadirlar.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati Farg'ona vodiysida o'zgaruvchan ob-havo sharoiti sababli Uzbekistan Airways muntazam qatnovlari kechikib amalga oshirilishiga olib kelishini eslatib o'tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.